SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrukh Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durдона Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Bahramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletalieva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybulloev	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi	
INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSİYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
Axmedov Sheramat Umurxojayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI.....	1486
Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINING HUDUDIY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021-2025)	1491
Yaqubov San'at Shonazarovich	
KICHIK VA O'RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1501
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN	1507
J.Ya. Nurillaev	
MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI	1513
Sodikov Zokir Rustamovich	
KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1519
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna	
TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O'SISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	1524
Allaberganov Zakir G'ayibovich	



TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O'SISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Allaberganov Zakir G'ayibovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

E-mail: zokir3432@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy faoliyat samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tejamkorlik bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda nazariy-uslubiy yondashuvlar asosida tejamkorlikni ta'minlashning innovatsion yo'nalishlari va omillari tizimli ravishda tartibga keltirilgan. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy resurslar unumdorligini oshirish va tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan me'yorlarga erishishda tejamkorlikni joriy etish imkoniyatlari hamda shart-sharoitlariga doir ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tejamkorlik, foydani maksimallashtirish, iqtisodiy resurslar, investitsion tovarlar, iqtisodiy faoliyat, innovatsion iqtisodiyot, iqtisodiy faollik, davlat sanoat siyosati, raqobatbardoshlik, ishlab chiqarish miqyosi.

Abstract. The article examines processes related to the impact of efficiency (saving) on factors influencing the competitiveness of producers and the effectiveness of economic activity in the national economy. Based on theoretical and methodological approaches, innovative directions and factors for ensuring efficiency are systematized. In the context of an innovative economy, scientific proposals and practical recommendations are developed regarding the conditions and opportunities for implementing efficiency measures to achieve established standards for increasing the productivity of economic resources and reducing costs.

Key words: efficiency, profit maximization, economic resources, investment goods, economic activity, innovative economy, economic activity, state industrial policy, competitiveness, production scale.

Аннотация. В статье исследуются процессы, связанные с влиянием бережливости на факторы, определяющие конкурентоспособность производителей и эффективность экономической деятельности в национальной экономике. В данном контексте на основе теоретико-методологических подходов систематизированы инновационные направления и факторы обеспечения бережливости. В условиях инновационной экономики разработаны научные предложения и практические рекомендации по внедрению принципов бережливости для достижения установленных норм повышения производительности экономических ресурсов и снижения себестоимости.

Ключевые слова: бережливость, максимизация прибыли, экономические ресурсы, инвестиционные товары, экономическая деятельность, инновационная экономика, экономическая активность, государственная промышленная политика, конкурентоспособность, масштаб производства.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti qoidalari asosida zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xo'jalik yuritish usullari, eng avvalo, talab va taklif, raqobat mexanizmlari, narxlarning erkin shakllanishi hamda foydani maksimallashtirish tamoyillariga asoslanadi. Rivojlangan mamlakatlarda foydani maksimallashtirish qoidalariga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasidagi tejamkorlik ishlab chiqarish sohasiga bevosita taalluqli bo'lib, jamoaning iqtisodiy faoliyatining pirovard natijasi hisoblangan investitsion tovarlardan samarali foydalanishga qaratilgan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Mazkur darajada tejamkorlikning o'ziga xos shaklda amal qilishi xo'jalik subyekti doirasida uni baholash va aniqlashga nisbatan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tejamkorlikning o'rni va dolzarbligi xususida Shavkat Mirziyoyev 2020–12–29 sanasidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "...kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu — qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdir. Bunda har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo'yiladi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga



eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan texnologiyalar, biotexnologiyalar, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etish lozim" [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq holda iqtisodiy resurslar iste'moli jarayonini tashkil etish usullarini ham bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiqlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamkorlik asosida foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yaqin yuz yil ichida ishlab chiqarishni energiya resurslari — neft, gaz va ko'mir bilan ta'minlash masalasi global muammo sifatida yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas [2]. Shu kabi omillar mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida tejamkorlikni baholash hamda uni aniqlashga doir ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda resurslarning cheklanganligi va global raqobatning kuchayishi sharoitida tejamkorlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tejamkorlik nafaqat xarajatlarni qisqartirish, balki mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni anglatadi.

Innovatsion taraqqiyot esa iqtisodiyotning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tejamkorlik va innovatsiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi iqtisodiy barqarorlik hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tejamkorlik bilan bog'liq fikrlar turli manbalarda, jumladan, diniy ta'limotlarda ham keng yoritilgan. Masalan, zardushtiylikning muqaddas kitobi — Avestoda moddiy boyliklarni ko'paytirish kishilarning asosiy faoliyati sifatida ulug'lanadi. Ushbu yondashuvda iqtisodiy faoliyat va jarayonlarda tejamkorlikning o'rni munosib baholanib, u moddiy farovonlikning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Ma'lumki, har qanday faoliyatda o'tahollik, mo'tadillik va me'yor tamoyillari doimo ma'qullangan. Aksincha, haddan oshish, isrofgarchilik, manmanlik va riyokorlik kabi illatlar ham aqlan, ham shar'an qoralanib, ulardan tiyilish zarurligi ta'kidlangan.

Tejamkorlikni baholash va uni aniqlashga doir dastlabki ilmiy tadqiqotlar klassik iqtisodchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, ular mehnatni tejash masalasini qiymatning mehnat nazariyasi orqali izohlab berganlar. Adam Smith fikriga ko'ra, tejamkorlikka insonlarni o'z turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilish undaydi. Tejamkorlikka ayirboshlash va mehnat taqsimotining o'zaro aloqadorligi orqali erishish mumkin. Mehnat taqsimoti jarayonida milliy mahsulotni yaratishda insonlar o'rtasida hamkorlik shakllanadi. Masalan, hunarmand dehqon uchun kiyim tikish vazifasini bajarib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Dehqon esa, o'z navbatida, hunarmandni don yetishtirishdan ozod etib, sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishiga hissa qo'shadi [3].

Adam Smithning "ko'rinmas qo'l" tamoyilini xalqaro savdoga nisbatan qo'llagan holda, har bir mamlakat o'z resurslari va mehnatini eng yuqori foyda keltiruvchi sohalarga yo'naltirishi lozimligini asoslaydi. Ushbu manfaatga intilish natijasida turli mamlakatlar o'rtasida samarali va tejamli mehnat taqsimoti yuzaga keladi. Natijada, masalan, vino Fransiya va Portugaliyada, un mahsulotlari Amerika va Polshada, turli metall buyumlar esa Angliyada ishlab chiqarilishi maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanadi [4].

Dj. Pettersen tadqiqotlarida ishlab chiqarishning strategik rivojlanish omillaridan samarali foydalanish jarayonida oraliq ishlab chiqarish bosqichining ahamiyati asoslab berilgan. Xususan, ishlab chiqarishdagi nomuvofiqliklarni tashkilot doirasida shakllantirilgan konsepsiyaning ehtimoliy ko'rsatkichlari orqali izohlash mumkinligi haqidagi xulosaga kelingan [5].

B. Klaudia va S. Marek tadqiqotlariga muvofiq, korxonada tejamkorlikni baholash va uni aniqlash jarayonida innovatsiyalarning o'rni hamda ularni boshqarish strategiyasi tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni boshqarish modeliga ko'ra, innovatsiyalarni boshqarishda qo'llaniladigan aralash usullar va vositalar tejamkorlikni baholashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi [6].

D. Vumek va D. Djonstadqiqotlarida tejamkorlikni baholash va uni aniqlash tizimi korxonalarda qadriyat yaratish jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilganligi ta'kidlanadi. Xususan, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi omillarni vaqt va makon nuqtayi nazaridan oqilona uyg'unlashtirish hamda sifatni oshirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etiladi [7].

S. G. Tyaglov va I. V. Takmasheva o'z tadqiqotlarida korxonada tejamkorligini ishlab chiqarish texnologiyalarining usullari, tamoyillari va asosiy vositalari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadilar [8].

Michael Porter o'zining ilmiy tadqiqotlarida tashqi savdoning asosiy tamoyillarini yoritish jarayonida mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini bevosita tejamkorlik bilan bog'laydi. U tejamkorlikni quyidagi darajalarda tahlil qiladi: firma ichidagi texnologik tejamkorlik, ishlab chiqarish miqyosidagi tejamkorlik hamda tarmoq yoki makroiqtisodiy darajadagi tejamkorlik [9].

E. Sh. Shodmonov va boshqalar tadqiqotlarida bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarida tejamkorlikni ta'minlashning shart-sharoitlari va omillari, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish jarayonlarini tizimli tashkil etish masalalari o'rganilgan [10].



T. T. Jo'raev va R. A. Kalandarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ishlab chiqarish samaradorligi va tejamkorlik darajasi, avvalo, texnika va texnologiya rivojlanishiga bog'liqdir. Shu bilan birga, texnika taraqqiyoti ichki talabni samarali qondirishda muhim rol o'ynovchi kichik biznes faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi [11].

B. A. Xolmatov tadqiqotlarida qishloq xo'jaligida tejamkorlik omillarini rivojlantirish bo'yicha turli darajadagi chora-tadbirlarni o'zaro muvofiqlashtirish jarayoniga ustuvor ahamiyat berilgan [12].

X. G'. Xaydarov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda fan va texnika sohasida davlat sanoat siyosatining asosiy maqsadi — iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda keng ko'lami ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish orqali tejamkorlikni ta'minlashdan iborat ekanligi asoslab berilgan [13].

Bizningcha, yuqoridagi tejamkorlikka oid qarashlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy faoliyatning shakllanishi va rivojlanishi bilan birga tejamkorlik muammosi ham vujudga keladi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida insoniyat oldida tejamkorlikni ta'minlovchi samarali xo'jalik yuritish shakllarini izlab topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda tejamkorlikning zaruratga aylanishi resurslar isrofgarchiligi, sifatsiz mahsulotlar hajmining ortishi hamda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdorining raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi o'rni bilan bog'liq jarayonlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tejamkorlikni baholash va uni aniqlashga doir uslubiy yondashuvlarning muhim xususiyatlari mantiqiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, shuningdek, tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot metodlari asosida yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tejamkorlikning mahsulot birligi uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, shuningdek, turdosh sohalar o'rtasidagi o'zaro to'ldiruvchanlik, texnologiya va axborot almashinuvi samaralari bilan bog'liqligi XIX asr kapitalistik ishlab chiqarish usuli doirasida keng tahlil etilgan. Ushbu davrda sanoatda oddiy kooperatsiyaning manufaktura bilan almashinuvi hamda undan kapitalistik fabrikaga o'tish jarayonida ijtimoiy mehnatni tejash ustuvor ahamiyat kasb etganligi asoslab berilgan.

Biroq, mazkur davr tadqiqotlarida resurslarni iqtisod qilishni mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni qisqartirish hamda korxonalarining resurs zaxiralarini kamaytirish orqali ortiqcha sarflarni me'yorlashtirish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

XX asrga kelib, moddiy resurslarni iqtisod qilish mahsulot sifati va texnik darajasini pasaytirmasdan, joriy yoki bazis davrga nisbatan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan material resurslar ulushining kamayishi bilan tavsiflanadigan tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Ushbu davr ilmiy ishlanmalarining asosiy xususiyati — tejamkorlikni samarali xo'jalik yuritishning muhim omili sifatida e'tirof etilishi va unga erishish yo'llarining ilmiy asosda ishlab chiqilganligidir.

Hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayonida jonli mehnat va unda mujassamlashgan o'tmish mehnat sarflari nisbatida sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Bunda jonli mehnat ulushi kamayib, buyumlashgan mehnat ulushi nisbatan ortib boradi va natijada mahsulot birligida mujassamlashgan umumiy mehnat sarfi qisqaradi. Jonli mehnat sarflarining kamayishi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida mehnatning texnika bilan qurollanish darajasining oshishi bilan izohlanadi. Bu jarayonda qo'l mehnati mashina va uskunalar zimmasiga yuklanib, insonning texnikaga bog'liqligi ortadi. Natijada ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlar sonining qisqarishi uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi esa umumiy mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida resurslar taqchilligi ehtiyojlarni oqilona qondirish darajasini tanlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa kam resurs sarflab, yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Natijada mahsulot birligini yaratish uchun sarflanadigan resurslar miqdorini qisqartirish orqali resurslardan tejamli foydalanish ustuvor yo'nalishga aylanadi.

O'z navbatida, resurslardan oqilona foydalanish ularning iste'mol xossalarini (tabiiy, kimyoviy, fizik va boshqalar) hisobga olgan holda to'g'ri qo'llashni anglatadi. Ushbu yondashuv resurslardan muqobil foydalanish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, bir xil turdagi resurslardan turli sifat va miqdor ko'rsatkichlari asosida foydalanish imkonini beradi.

Har qanday darajada iqtisodiy o'sishning barqarorligi, avvalo, zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, milliy xo'jalikni jahon iqtisodiyoti rivojlanish tamoyillariga mos ravishda modernizatsiya qilish, milliy va jahon bozorlaridagi talabni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda ijobiy tarkibiy o'zgarishlar va maqbul restrukturizatsiya jarayonlarini amalga oshirish hamda barcha darajalarda tejamkorlik tamoyillarini joriy etishni taqozo etadi.




Amaliyotda har bir resursdan to'liq va maqsadga muvofiq foydalanishga erishish murakkab vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, erkin bozor sharoitida raqobat va narx mexanizmlarining to'liq samarali amal qilmasligi hamda resurslar to'g'risidagi axborotning yetarli emasligi ko'p hollarda ulardan noo'rin va samarasiz foydalanishga olib keladi. Shu bois mamlakat va uning hududlarining tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, mavjud resurs salohiyati, ularning ichki va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni, ixtisoslashuv darajasi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik hamda iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kompleks tarzda hisobga olish zarur.

O'zbekistonda "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda innovatsion faollikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda kichik biznes va startaplarni qo'llab-quvvatlash, sanoatda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish hamda raqamli platformalarni kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiyotda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar — sanoat mahsuloti, iste'mol tovarlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar kiritish, chakana tovar aylanmasi hamda pulli xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari dinamikasini barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'rtacha darajadan past ko'rsatkichlarga ega hududlarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilash davlatning hududiy iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, mazkur jarayon iqtisodiy faollikning yuqori darajada shakllanishini hamda tejamkorlikning innovatsion taraqqiyot bilan uyg'un holda rivojlanishini taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida tejamkorlikni ta'minlashda moddiy resurslardan foydalanishning o'rni

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida tejamkorlikni ta'minlash moddiy resurslardan foydalanish jarayonida ustuvorlikni belgilaydi. Bu esa mahsulotning taqsimlanmagan qismida mintaqalar ulushini qisqartirish orqali hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Mintaqalarda iqtisodiy o'sishga qaratilgan siyosat, avvalo, o'sish sur'ati o'rtacha darajadan past bo'lgan hududlar ulushini kamaytirish va mavjud farqlarni qisqartirishga yo'naltirilishi lozim.

Muayyan ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish resurslarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini, shuningdek, ularning nafillik darajasini aniq belgilashni talab etadi.

Tejamkorlikning innovatsion taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni tejamli ishlab chiqarishga o'tish jarayonida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, "...elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya



iste'molini kamaytirish hamda energiya tejamkorligini ta'minlovchi samarali tizimni joriy etish choralarini amalga oshirish" [2] muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga elektr energiyasi ta'minoti tizimiga xususiy operatorlarni jalb etish, hisob-kitob tizimini takomillashtirish, iste'molchilar hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish orqali erishiladi.

Elektr energiyasi iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyatini ta'minlovchi asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, uning iste'mol dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish, tarmoqlar transformatsiyasi hamda aholi turmush darajasining muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi.

2020–2026-yillarga oid ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda elektr energiyasiga bo'lgan talab barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu holat iqtisodiy faollikning kengayishi bilan uzviy bog'liqdir.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda jami iste'mol 59 800 mln kVt-soatni, 2026-yilda esa 76 500 mln kVt-soatni tashkil etgan. Umumiy o'sish 16 700 mln kVt-soatni yoki 28 foizni tashkil etadi. Mazkur o'sish sanoatlashuv jarayonining chuqurlashuvi, aholi soni va daromadlarining ortishi, shuningdek, raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sohasining kengayishi bilan izohlanadi.

Istiqbolda ushbu sohalarida elektr energiyasi iste'molini optimallashtirish maqsadida me'yorlashtirish tizimini joriy etish hamda uni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. 2020–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining tarmoq va sohalarida elektr energiyasi iste'moli (mln kVt-soat) [14]

Nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2026*
Jami	59800	61500	64500	67500	70500	73500	76500
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha							
Sanoat	17749	18500	19500	20500	21500	22500	23500
Qurilish	422	450	480	520	560	600	650
Qishloq xo'jaligi	10596	10800	11200	11600	12000	12500	13000
Transport	2815	3000	3200	3500	3800	4100	4500
Tijorat va davlat	5635	6000	6500	7000	7500	8000	8500
Aholi	18652	19500	20500	21500	22500	23500	24500
Boshqa sohalar	1230	1500	1700	1900	2100	2300	2500

Yuqoridagi holatlar tejamkorlikni joriy etish jarayonida hududlar kesimida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholi turmush farovonligini oshirish talablarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Har qanday darajada iqtisodiy o'sishning barqarorligi, avvalo, zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, milliy xo'jalikni jahon iqtisodiyoti rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda modernizatsiya qilish, milliy va jahon bozorlaridagi talabni e'tiborga olib ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda ijobiy tarkibiy o'zgarishlarni hamda maqbul restrukturizatsiya jarayonlarini amalga oshirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida tejamkorlik tamoyillarini joriy etishni taqozo etadi.

Bunda mamlakat va uning hududlarining tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, mavjud resurs salohiyati, ularning ichki va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'рни hamda ixtisoslashuv darajasi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, shuningdek, iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kompleks tarzda hisobga olish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tejamkorlikning innovatsion taraqqiyotni ta'minlashdagi rolini oshirish uchun ichki iste'molchilar va yetkazib beruvchilar zanjirini izchil va uzluksiz jarayonlarga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ichki va tashqi iste'molchilar uchun qiymat yaratish oqimini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur oqimni yetkazib beruvchilarga ham joriy etish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, bir martalik yetkazib berish hajmini minimallashtirish hamda yetkazib berish sharoitlari va sifatini iste'molchilarning real ehtiyojlariga maksimal darajada moslashtirishga xizmat qiladi.

Tejamli ishlab chiqarishga o'tishning keyingi bosqichi xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish bo'yicha tashabbuskorlikni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tashabbuskorlikni infratuzilmalar yordamida iqtisodiy oqimlar harakatining uzluksizligini ta'minlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Tejamli ishlab chiqarish sharoitida mahsulot sifati oshishi bilan iste'molchilar talabi to'liqroq qondiriladi, resurslar zaxirasi darajasi kamayadi, ishlab chiqaruvchi xodimlar malakasi muntazam oshirib boriladi hamda moslashuvchan texnologiyalar joriy etiladi. Shu bilan birga, mehnat, kapital va vaqt sarflari qisqaradi, mahsulot



hajmini o'zgartirmagan holda kapital qo'yilmalar samaradorligi oshadi, ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish yaxshilanadi, yangi mahsulot turlarini yaratish va buyurtmalarni bajarish muddati qisqaradi, shuningdek, nuqsonli mahsulotlar ulushi va zaxiralar hajmi kamayadi.

Respublika iqtisodiyotining suveren davlat sifatida barqaror rivojlanishida mavjud energetik va xomashyo resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga asoslangan milliy yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning energiya tejamkorligi sohasidagi ilg'or ilmiy-amaliy tajribasini har tomonlama o'rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Energiya tejamkorligi samarali amalga oshirilganda yakuniy natijaga erishish uchun zarur bo'lgan energiya resurslari va energiya tashuvchilarga bo'lgan talab sezilarli darajada kamayadi. Bu nafaqat energiyani tejash imkonini beradi, balki undan yanada samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratadi.

Fikrimizcha, mamlakatimiz iqtisodiyotining tarmoq va sohalarida innovatsion taraqqiyotni ta'minlash va uning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda tejamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiy rivojlanish darajasi past, ammo tabiiy-xomashyo, mineral va mehnat resurslariga boy hududlarda yirik aglomeratsiya markazlarini shakllantirish;
- faol investitsion siyosat yuritish, investitsiyalarning o'zlashtirilgan qismi ulushini oshirish orqali iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish;
- hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini ekotizim tamoyillari asosida tashkil etib, energiya, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini joriy etish;
- iqtisodiyot tarkibini maqbul darajada o'zgartirish orqali jamiyat va individual iste'molni tejamkorlik tamoyillari asosida muvofiqlashtirish;
- sun'iy ekotizimlar (yashil hududlar, o'rmonlar, parklar, suv havzalari, issiqxonalar)ni rivojlantirish orqali atrof-muhit sifatini yaxshilash;
- qayta tiklanuvchi energetika tizimlarini rivojlantirish va ularni mavjud tizimlar bilan integratsiya qilish orqali energiya tejamkorligini oshirish;
- energetik, suv va moddiy resurslar bo'yicha qiyosiy iste'mol normalarini (kishi boshiga va ishlab chiqarish birligiga to'g'ri keladigan) ishlab chiqish va ularga rioya etilishini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, tejamkorlik va innovatsiya zamonaviy iqtisodiyotning o'zaro bog'liq ikki muhim ustuni hisoblanadi. Ular birgalikda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, resurslardan samarali foydalanish imkonini kengaytiradi hamda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Shu sababli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun tejamkorlik tamoyillarini keng joriy etish va innovatsion faollikni oshirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi 2023–09–11 dagi PF–158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Zubko N. M. Ekonomicheskaya teoriya. – Minsk: NTS API, 1998. – B. 61.
3. Mayburd Ye. M. Vvedeniye v istoriyu ekonomicheskoy misli. – Moskva: Nauka, 1996. – B. 68.
4. Kostyuk V. N. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. – Moskva: Sentr, 1998. – B. 47.
5. Pettersen J. Defining Lean Production: Some Conceptual and Practical Issues. – TQM Journal, 2009, 21(2), 127–142. DOI: 10.1108/17542730910938137.
6. Bracio K., Szaruck M. Mixed Methods Utilisation in Innovation Management Research: A Systematic Literature Review and Meta-Summary. – Journal of Risk and Financial Management, 2020, 13, 252. DOI: 10.3390/jrfm13110252.
7. Vumek D., Djonc D. Prodazha tovarov i uslug po metodu berezhlivogo proizvodstva. – Moskva: Alpina Publisher, 2016. – 261 b.
8. Tyaglov S. G., Takmasheva I. V. Ispolzovaniye texnologiy berezhlivogo proizvodstva v kachestve osnovy innovatsionnogo razvitiya regionov. – Journal of Economic Regulation, 2017, 8(2). DOI: 10.17835/2078-5429.2017.8.2.097-110.
9. Porter M. Mezhdunarodnaya konkurensiya. – Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1993. – B. 49.
10. Shodmonov E. Sh., Bababekova D. Sh., Tursunov B. O. Korxonona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020. – 528 b.
11. Jo'rayev T. T., Kalandarov R. A. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning real sektorini innovatsion taraqqiyotini ta'minlash. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 52 b.
12. Xolmatov B. A. Qishloq xo'jaligida tejamkorlik omilini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish. – "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2019–01–02.
13. Xaydarov X. G'. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi — tarkibiy o'zgarishlar mexanizmi sifatida. – "Moliya" ilmiy jurnali, 2019–09, 54–58-betlar.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti: www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>